

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



EKSPORT – MAMLAKAT IQTISODIY O‘SISHIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Sharifi Ahmad Sakhrob

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(Afg‘oniston Islom Respublikasi fuqarosi)



Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va So‘nggi paytlarda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar uning eksport salohiyatini yuksalishiga xizmat qilayotganligi tahlil etilgan hamda mamlakat eksport salohiyati, uning iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shayotgan asosiy tarmoqlari hamda ularni rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mumkin bo‘lgan imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘shish, eksportbop mahsulotlar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, paxta, meva va sabzavotlar.

Abstract: This article analyzes the fact that Uzbekistan’s rich natural resources, geographical location, and recent state reforms serve to increase its export potential. the existing problems and the possibilities of their elimination are highlighted.

Key words: economic growth, exportable products, industry, agriculture, cotton, fruits and vegetables.

Аннотация: В данной статье анализируется тот факт, что богатые природные ресурсы Узбекистана, его географическое положение и проведенные в последнее время государственные реформы служат повышению его экспортного потенциала, выделяются существующие проблемы и возможности их устранения.

Ключевые слова: экономический рост, экспортная продукция, промышленность, сельское хозяйство, хлопок, фрукты и овощи.

KIRISH

Hozirda eksport O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun samarali rivojlanish manbayi sanaladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va boshqa mamlakatlarga sotish-mamlakatning yanada taraqqiy topishi va turmush tarzi o‘shishidagi muhim qadam hisoblanadi.

Eksport mamlakat korxonalari va kompaniyalari, uning xaridorlari va umuman jamiyatimiz uchun imtiyoz, tashqi bozorga chiqish ishlab chiqaruvchilar uchun yanada raqobatdosh mahsulotlar va xizmatlarni xalqaro bozorlarga chiqarish manbayi hisoblanadi. Shuningdek, raqobatchilar tomonidan doimiy bosim bizda sarmoya, innovatsiya(yangilik) va ishlab chiqarishning oshishini rag‘batlantiradi. Shu sababli eksport faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini o‘shishiga ta’sir etuvchi asosiy omil deb hisoblashimiz mumkin. ususan, eksportning o‘shishi mamlakatning qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan tarmoqlariga investitsiyalarni oshiradi, milliy ishlab chiqarishni ko‘paytiradi va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshiradi. Eksportning o‘shishi, shuningdek, valyuta oqimini oshiradi va mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy o‘shishda muhim bo‘lgan xizmatlar va ishlab chiqarish tovarlari importini kengaytirish imkonini beradi ^[12].

Ma’lumki, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish(28-maqсад)^[1]” masalasi qo‘yilgan bo‘lib, u hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish hamda mashhur brendlarni jalb qilish, xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, eksportchi korxonalarga ko‘rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko‘paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish kabi qator vazifalar belgilangan.

Bularning barchasi O‘zbekistonning jahonda iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda barqarorlikning asosiy omili ishlab chiqarishni kengaytirishi va tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashini taqozo etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiyotda eksportni tashkil etishning ijtimoiy, iqtisodiy mazmuni va o'ziga xos jihatlari P. Raul, N. Yu. Rodigina, A. B. Yengibarov, V. V. Pokrovskaya, M. Boltabayev, L. O'. Mingashov, I. Xaliqova A. M. Qodirjonov, A. R. Rustamov, A. Bayev, Sh. Muratova, B. Islamov, M. Turdibayeva, O. Astanakulov, N. Qurbanaliyeva kabi xorijlik hamda O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Prebish Raul birinchilardan bo'lib, o'z tadqiqotlarida eksportning tarkibiy xususiyatlari va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini ko'rib chiqdi va mamlakatning xom ashyo eksportiga ixtisoslashuvi ushbu mamlakat va tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovut oshirib borishini aniqladi ^[2].

Eksportning tovar tarkibi va uning iqtisodiy o'sishdagi bevosita roli Lederman D. va Maloniy V. tadqiqotlarida o'rganilgan. Tadqiqotchilar eksport qilinayotgan mahsulotlarning qayta ishlanganlik darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni ko'rsatib bergan ^[3].

N. Yu. Rodigina o'z ilmiy ishlarida, globallashuv va xalqaro raqobat kuchayishi sharoitida davlat eksport siyosati rolini ob'yektiv oshirish, eksportni zam onaviy davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari va eng samarali shakllarini belgilab bergan ^[4].

A. B. Yengibarov tomonidan, takliflarni shakllantirish asosi – bozor talabini o'rganish va aniqlash yordamida mashina va uskunalar hamda tayyor mahsulotlar eksport bozorlarida tijorat ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari tahlil etilgan ^[5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh. Muratovning "Iste'mol tovarlari "yashil" eksportining imkoniyatlari va istiqbollari" nomli maqolasida zamonaviy sharoitda mamlakatimizning xorijiy davlatlar, xususan, Yevropa Ittifoqi bilan tashqi savdo siyosatini amalga oshirish jarayoni tahlil qilingan bo'lib, bu jarayonga sanoatda eksport o'sish sur'atlari sekinlashishi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va uning jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yuqori texnologiyali tovarlar sotish hajmini oshirish zarurati sezilarli ta'sir ko'rsatishi tavsiflangan. Shuningdek, ishda "yashil" eksport tushunchasiga aniqlik kiritilib, uning iqtisodiy va bojxona jihatlari ko'rib chiqilgan, shuningdek SWOT-tahlili asosida "yashil" eksportning kuchli va zaif tomonlari aniqlangan, uni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va istiqbollari keltirilgan ^[6].

O. Astanakulov, N. Qurbanaliyevlar tadqiqotlarida tashqi savdo tarkibida tovarlar eksporti ahamiyatini yoritib berishgan. Shuningdek ular, tovarlar eksportini rivojlanishi uchun ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, yaratilayotgan me'yoriy-huquqiy sharoitlar ko'rsatib berilgan. Tovar eksportini toifalar bo'yicha turlarga ajratish jahon standartlari talabi asosida amalga oshirilib, ushbu turlarga ajratilgan tovarlarni tahlil qilinayotgan yillar davomida o'sish dinamikasi va toifalar bo'yicha tarkibiy o'zgarishlari qiyosiy tahlil qilinib, erishilgan tahlil natijalarining iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ta'siri ko'rsatib berilgan ^[7].

Eksportning gravitasion modellarini baholashning mavjud ekonometrik yondashuvlarini nolli kuzatuvlar, noxolislik, hisob-kitoblarning nomuvofiqligi va samarasizligini hisobga olish kabi muammolarni hal qilish nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil B. Islamov, M. Turdibayevlar tomonidan amalga oshirilgan va natijada tasodifiy samaralarga ega panelli regressiyalarni baholash usuli O'zbekiston Respublikasi eksporti gravitasion modelini baholashning eng maqbul usuli ekanligi asoslangan ^[8].

A. Bayev esa, O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti holatini o'rganib, meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha olingan ma'lumotlarni matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilish natijasida olingan matematik modelning prognoz sifatini baholangan va tahlil natijalariga ko'ra ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflarini ishlab chiqqan ^[9].

A. R. Rustamov tomonidan, O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyati va undagi sanoat mahsulotlari ulushiga oid So'nggi yillardagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan hamda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksport hajmini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[10].

A. M. Qodirjonov O'zbekiston Respublikasi eksportining tovar va geografik tarkibi, uning So'nggi yillardagi ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilgan, mavjud holatlarni ilmiy-nazariy jihatdan baholagan. Shuningdek, eksportni tarkibiy takomillashtirish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini ishlab chiqilgan ^[11].

METODLAR

21-asrning boshlaridan boshlab eksport va ilg'or texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Siyosat nuqtayi nazaridan amalga oshirilayotgan texnologiya taraqqiyoti tovarlar va xizmatlar eksportini optimallashtirish orqali ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarning unumdorligini sezilarli darajada oshirdi. Bu, shuningdek, iqtisodiyotning eksport salohiyatini ifodalaydi va butun jahon jahon raqobatbardoshligini yoritadi. Radeletning fikriga ko'ra, "eksportning tez o'sishi tez iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan kapital tovarlarni sotib olish va texnologiya transferini osonlashtiradi" ^[14]. Texnologik yuksalish, shuningdek, samaradorlikni oshirish va iqtisodiyotning strategik rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ilg'or texnologiya



kamroq kirish va kamroq murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, yaxshi bajarilishi va savdosi bilan uni bir mamlakatdan boshqasiga ortiqcha xarajat, kuch va qiyinchiliksiz o'tkazish mumkin ^[15]. Shunday qilib, u "yangi xalqaro iqtisodiyot"ning muhim omili sifatida abadiy e'tirof etilgan, xalqarolashtirish jarayonini ta'minlash uchun yuqori darajadagi integratsiyani amalga oshirgan telekommunikatsiya texnologiyalari orqali namoyon bo'ladi ^[16]. Ushbu texnologiyaning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshiradi, inson kapitalini shakllantirish jarayonini kuchaytiradi, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga yordam beradi, ishlab chiqarish jarayonida resurslarning isrof qilinishini minimallashtiradi, sifatni yaxshilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu eksportdir. Buning uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratish zarur.

Shu boisdan, So'nggi yillarda mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada oshirish, biznes muhitini yaxshilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash borasida muhim qadamlar qo'yildi.

Sohaning qonuniy asosini mustahkamlash maqsadida 60 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Buning natijasida tashqi savdo jarayonlari soddalashtirilib, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatida qator yengilliklar yaratildi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi.

Eksport qiluvchilar mahsulotini eksport bozoriga tashish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya olishlari mumkin. Shuningdek, sug'urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug'urta mukofoti kompensatsiyasini olish tartibi ham joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatda eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida ular eksport operatsiyalari bo'yicha tashqi xarajatlarni qoplab berishga qaratilgan moliyaviy yordam turlari joriy qilingan. Mazkur moliyaviy yordam turi eksportchi korxonalarning logistika xarajatlari qisqartirish orqali narx va sifat jihatdan tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Yildan-yilga moliyaviy yordam turlari yanada kengaytirilmoqda. 2020-yilda 68 turdagi tovarga 50 foizgacha miqdorida kompensatsiya taqdim etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 200 dan ortiq turdagi tovarga tashqi xarajatlarni qoplab berish bo'yicha kompensatsiya taqdim etilmoqda. Bundan tashqari qo'shni mamlakatlarga eksport qilinayotgan 85 turdagi tovarlarga ham transport xarajatlarni qoplab berish bo'yicha ham moliyaviy yordam ko'rsatib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktyabrda "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatda eksportni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu hujjat eksport qiluvchilar uchun qator qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Xususan, Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan korxonalarga beriladigan kafolatlar bo'yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi.

Mazkur hujjat qabul qilingunga qadar tijorat banklarining eksport oldi kredit bo'yicha foiz xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya faqat ishlab chiqaruvchi eksportchilarga berilgan. Mazkur farmon bilan yirik imtiyoz asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo'lgan eksport qiluvchilarga ham joriy etildi.

Bugungi kunda Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan 272 ta korxonaga 164 million AQSH dollar miqdorida eksport oldi kredit mablag'lari ajratilgan. Ular tomonidan 703 million eksport amalga oshirilgan va bu hozir ham davom etmoqda.

Eksport qiluvchi korxonalar faoliyatidagi asosiy muammolardan yana biri bu aylanma mablag' yetishmasligidir. Joriy qilingan yangi tartib orqali yana bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar kengaytirildi. Xususan, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklardan olingan kreditlar bo'yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori 4 milliard so'mdan 8 milliard so'mgacha oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-oktyabrda "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan eksportchi korxonalarning mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida hamda ularni eksport majburiyatlarini bajarishda ko'maklashish maqsadida aylanma mablag'larini ta'minlash bo'yicha moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy qildi. Ushbu turdagi moliyaviy yordamdan ko'zlagan asosiy maqsad eksportchi korxonalarni xaridorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'liq bajarish, bundan tashqari sifatli va raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishdir. Shuningdek, yangi turdagi tovarlar bilan tashqi bozordagi yangi xaridorlar topish va eksport geografiasini kengaytirishdir.

Davlat rahbarining 2022-yil 30-sentyabrda "Tadbirkorlik sub'yektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida "Yangi O'zbekiston- raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur doirasida 200 ta eksportchi korxonani saralab, ularni har tomo-



nlama qo'llab-quvvatlash orqali yetakchi eksportchi korxonaga aylantirish vazifasi belgilangan edi. Mazkur das-
turni uch bosqichda amalga oshirish belgilangan. Ya'ni, birinchi bosqichda 2022-yil yakuniga qadar 50 yetakchi
eksportchi korxonalar saralab olindi. 2023-yil boshida esa ular soni 100 taga yetkazildi. 2023-yil 1-iyuldan esa
bosqichma-bosqich ular soni 200 taga yetkaziladi. Bugungi kunga qadar dasturga qaratilgan 100 ta eksportchi
korxonalarning 36 tasiga 71 milliard so'mlik QQS tezlalashtirilgan tartibda 7 kun ichida qaytarib berildi. Bundan
tashqari 20 tasiga eksport oldi moliyalashtirish maqsadida 17,3 million dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Shu
bilan birga mazkur eksportchi korxonalarda xalqaro sertifikat va standartlarni joriy etish uchun 30 ming dol-
largacha bo'lgan qiymatda Eksportni rag'batlantirish agentligidan moliyaviy yordam olish imkoniyati mavjud.
Yil boshidan bugungi kunga qadar 100 ta eksportchi korxona tomonidan 120 million dollarlik eksport amalga
oshtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi keyingi besh yilda iqtisodiy o'sishni 1,5 barobar oshirish va YAIMni 100 mlrd.
dollarga yetkazishni shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirishni rejalashtir-
moqda. Mamlakat eksport salohiyati 1,7 barobar oshib, 2026-yilda 30 mlrd. dollarga yetadi. Eksport tarkibida
xom ashyo ulushi 23% kamayadi va tayyor mahsulot hajmi 2,5 barobarga oshadi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ma'lum qilishicha, 2017–2022-yillar mobaynida
mamlakat eksport geografiasini 16 ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mamlakat mahsulotlari 117 ta
mamlakatga yetib bormoqda. Tovar nomenklaturasida 2017-yildagi 179 xil mahsulot turi bo'lgan bo'lsa, 2022-
yilga kelib 200 dan ortdi.

Bugungi kunda O'zbekiston ochiq iqtisodiy siyosat olib bormoqda, savdoni erkinlashtirish, sanoatni mod-
ernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash choralari ko'rilmoqda. Xalqaro hamjamiyat bilan
o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda klaster va kooperativlarga ajratilgan qishloq
xo'jaligi-maydonlari hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda- 67 foizni, chorvachilikda-8 foizni, meva-sa-
bzavotchilikda- 7,5 foizni tashkil etmoqda^[17].

Ma'lumki, O'zbekiston paxta yetishtirish va eksport qilish bo'yicha dunyoda eng yetakchi o'rinlardan birida
turadi. Mamlakatda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va
texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab
chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib
kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatda jahon bozorida talab katta bo'lgan yuqori sifatli paxta yetishtirish
imkonini bermoqda.

Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o'rniga paxtadan tayyorlangan qo'shilgan qiymati
yuqori tovarlar eksporti yo'lga qo'yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 613,5 million AQSH dollariga teng bo'lgan
paxtadan yigirilgan ip, 644,9 million dollarlik tayyor trikotaj va to'qimachilik mahsulotlari, 242,8 million dollarlik
naqshli mato, 131,6 million dollarlik gazlamalar, 78,1 million dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 million dol-
larlik gilam mahsulotlari eksport qilindi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yorliqdagi milliy mahsulotlarimiz xorijiy bozorda munosib joy egallamoqda.

O'zbekiston iqlimi xilma-xilligi uzum, anor, olma, o'rik kabi mevalar va turli sabzavotlarni yetishtirish
imkonini beradi. Shu bois meva-sabzavot va uzumchilikda eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va
lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan-maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari
ekishni ko'paytirish maqsadida barcha tarmoqlarda ishlab chiqarishning yangi – klaster va kooperativ usullari
yo'lga qo'yilmoqda.

Qisqa vaqtda joylarda 150 ortiq meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil etildi. Ushbu klasterlar ixtiyorida
quvvati 1 million tonna bo'lgan 75 ta qayta ishlash korxonasi, 1200 taga yaqin zamonaviy qishloq xo'jaligi
texnikalari mavjud. Ular shu kunga qadar 40 ming gektar bog' va 20 ming gektarga yaqin tokzorlar barpo etdi.

Albatta, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning klaster va kooperativlarga birikkan holda xom
ashyoni qayta ishlash natijasida tayyorlangan mahsulotlarni dunyo bozorlariga yetkazib berish darajasi oshmoqda.
Misol uchun, 2022-yilda 1 145,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot dunyoning 70 ga yaqin mamlakat-
lariga eksport qilingan, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 18,5 % ga ko'paygan va jami eksportdagi ulushi 5,9 %
ni tashkil etgan^[17]. Bunda meva-sabzavotchilik hamda tomorqa xizmati klasterlarining o'zni beqiyosdir.

Qayd etish kerakki, jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlari savdosi 205 milliard dollarni tashkil etgan
bir paytda, O'zbekiston ulushi bir foizga ham yetmayapti. Shu bois sohaga xorijiy innovasion tajribalarni joriy
etish, noan'anaviy eksportbop meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish orqali 2023-yilda esa bu
ko'rsatkichni 5 milliard dollardan oshirish mo'ljallanmoqda.

Yildan-yilga hosilni yig'ib olingandan keyin qayta ishlash, saqlash va tashishni takomillashtirish borasida
sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, bu esa o'zbek dehqonlari mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqo-
batbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning yana bir eksportini asosini tashkil qiluvchi tovarlar bu tabiiy resurslar hisoblanadi. O'zbeki-
ston tabiiy resurslarga, jumladan, foydali qazilmalar va uglevodorodlarning katta zahiralari ega.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Albatta, yuqoridagi ko'rsatkichlarga erishishning o'zi bo'lmayapti. Buning uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solish kerak bo'ladi. Jumladan, "Mahsulot yetishtirish-xarid qilish-saqlash-qayta ishlash va eksport" zanjirini tashkil etadigan klaster va kooperatsiyalari tizimini keng joriy qilish muhim. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirish, tashish va saqlashdagi yo'qotishlarni kamaytiradi.

Mazkur yangi tizimning yana bir qator ijobiy jihatlari mavjud. Masalan, seleksiya borasida ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha yo'lga qo'yilmagani bois urug' va ko'chatlarni sezilarli qismi import qilinmoqda. Agarda eskirgan tizimdan voz kechilsa, klaster va kooperatsiya tizimi rahbarlari xorijlik hamkasblari bilan tajriba almashish, xalqaro bozorni o'rganish va talab yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga e'tibor qaratishiga imkon bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Хасбулатов Р. И. Международные экономические отношения в 3 ч. Част 1: учебник для вузов. – Москва : Издательство Юрайт, 2023. – 337 с.
3. Lederman D., Maloney W. F. Does What You Yexport Matter? In Search of Yempirical Guidance for Industrial Policies. Latin America Development Forum. Washington, DC, The World Bank, 2012.
4. Енгибаров А. Б. Некоторые вопросы повышения эффективности экспорта. М.: Международные отношения, 1983. – 238 с.
5. Родыгина Н. Ю. Экспортные стратегии промышленно развитых стран: возможности использования для России. Монография. М.: Издательство РГЭТУ, 2005. – 192 с.
6. Muratova Sh. Iste'mol tovarlari "yashil" eksportining imkoniyatlari va istiqbollari. //Iqtisodiyot va ta'lim, 2023, Tom 24 soni 3, 33–39 betlar.
7. Astanakulov O., Qurbanaliyeva N. O'zbekistonda tashqi savdoni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2023, Tom 24 soni 3, 28–33 betlar.
8. Islamov B., Turdibayeva M. Eksportning gravitasion modelini ekonometrik baholash: O'zbekiston respublikasi misolidi. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2023, Tom 24 soni 3, 510–517 betlar.
9. Bayev A. Meva-sabzavotlar yeksportini rivojlantirishda yekonometrik modellash usullarining samarali qo'llanishi. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2023, Tom 24 soni 1, 543–547 betlar.
10. Rustamov A. R. Mamlakatimiz eksport salohiyati va unda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'rni. // "UzBridge" elektron jurnali, 2021-yil, 1- son, -iyun, 56 – 60 betlar.
11. Qodirjonov A. M. O'zbekiston respublikasi eksportini tarkibiy holati tahlili va takomillashtirish imkoniyatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2021-y., № 2, -mart-aprel, 403–408 b.
12. Kalaitzi, A. S., Chamberlain, T. W. Exports and Economic Growth: Some Evidence from the GCC. Int Adv Econ Res 26, 203–205 (2020). <https://doi.org/10.1007/s11294-020-09786-0>
13. Md Reza Sultanuzzaman, Hongzhong Fan, Elyas Abdulahi Mohamued, Md Ismail Hossain & Mollah Aminul Islam (2019) Effects of export and technology on economic growth: Selected emerging Asian economies, Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 32:1, 2515–2531, DOI: 10.1080/1331677X.2019.1650656
14. Radelet, S., Sachs, J., & Lee, J. (1997). Economic growth in Asia. In Development discussionpaper. Cambridge, MA: Harvard Institute for International Development.
15. Elster, J. (1984). Explaining technical change: A case study in the philosophy of science. Cambridge: Cambridge University Press, Universitetsforlaget.
16. Rosenbloom, B., & Larsen, T. (2003). Communication in international business-to-businessmarketing channels: Does culture matter? Industrial Marketing Management, 32(4), 309–315. doi:10.1016/S0019-8501(01)00202-4
17. [https://stat.uz/uz/-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti](https://stat.uz/uz/-O'zbekiston-Respublikasi-Prezidenti-huzuridagi-Statistika-agentligi-sayti).

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

